



**TASHKENT STATE  
UNIVERSITY OF ECONOMICS**

LABOUR ECONOMICS AND  
**HUMAN CAPITAL 2024** CAPITAL  
TASHKENT STATE UNIVERSITY  
OF ECONOMICS

# **MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI**

ilmiy elektron jurnali

## **LABOUR ECONOMICS AND HUMAN CAPITAL**

scientific electronic journal

LABOUR      LABOR ECONOMICS      LIFE EXPECTANCY

LIFE EXPECTANCY

**2024 yil 4-son**

HUMAN CAPITAL

Volume 10, Issue 4, 2024

QUALITY OF EDUCATION

HUMAN CAPITAL INDEX      QUALITY



МЕХНАТ ИКТИСОДИЙТИ  
ВА ИНСОН КАПИТАЛИ  
ISSN: 3030-3117



LABORECONOMICS.UZ

МЕХНАТ ИКТИСОДИЙТИ ВА ИНСОН КАПИТАЛИ  
№ 4-2024

ЭКОНОМИКА ТРУДА И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ  
КАПИТАЛ

LABOR ECONOMICS AND HUMAN CAPITAL

“Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy elektron jurnali O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 328/3-sonli qarori bilan ro’yxatga olingan.

**Muassis:** “Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy maktabi.

**Tahririyat manzili:**

100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko’chasi,  
49 uy

**Elektron manzil:** [ilmymaktab@gmail.com](mailto:ilmymaktab@gmail.com)

**Jurnal web-sayti:** [www.laboreconomics.uz](http://www.laboreconomics.uz)

**Bog’lanish uchun telefonlar:**

+998998818698

**Tahririyat Kengashi raisi:****(Chairman of the Editorial Board)**

Abduraxmanov Qalandar Xodjayevich, O'zFA akademigi

**Tahririyat Kengashi a'zolari:****(Members of the Editorial Board)**

Toshqulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof.

Yusupov Axmadbek Tadjiyevich, i.f.d.. prof.

Sharipov Kongratboy Avezimbetovich, t.f.d., prof

Raifkov Kudratilla Mirsagatovich, i.f.d., prof

Xalmuradov Rustam Ibragimovich, i.f.d., prof

Umurzakov Baxodir Xamidovich, i.f.d., prof.

Nazarov Sharofiddin Xakimovich, i.f.d., prof.

Jumayev Nodir Xasiyatovich, i.f.d., prof.

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof.

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof.

Zokirova Nodira Kalandarovna, i.f.d.. prof.

Xudoyberdiyev Zayniddin Yavkachevich, i.f.d., prof.

Muxiddinov Erkin Madorbekovich, i.f.f.d., (PhD)

Xolmuxammedov Muhsinjon Murodullayevich, i.f.n., dots.

Amirov Lochinbek Fayzullayevich, i.f.f.d., (PhD), dots.

G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich, i.f.d., (DSc), dots.

Shakarov Zafar Gafarovich, i.f.f.d., (PhD)

**Jamoatchilik Kengashi a'zolari:****(Community Council members)**

Bred Bodenxauzen (AQSh)

Jon Ankor (Buyuk Britaniya)

Odegov Yuriy Gennadevich (Rossiya Federasiyasi)

Xeynz Miller (AQSh)

Sung Dong Ki (Koreya Respublikasi)

Masato Xivatari (Yaponiya)

Gerxard Feldmayer (Germaniya)

Eko Shri Margianti (Indoneziya)

Ahmed Mohamed Aziz Ismoil (Misr)

Rohana Ngah (Malayziya)

Sharifah Zanniyerah (Malayziya)

Teguh Dartanto (Indoneziya)

Nur Azlinna (Saudiya Arabiston)

Muhammed Xoliq (Pokiston)

Alisher Dedaxonov (Toshkent)

**Mas'ul muxarrir (Editor-in-Chief):** G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich

**Veb-administrator (Web admin):** Musayev Xurshid Sharifjonovich



+99899 881-86-98



ilmiymaktab@gmail.com



Tashkent, Uzbekistan



[www.laboreconomics.uz](http://www.laboreconomics.uz)

**MUNDARIJA (CONTENTS)****MEHNAT BOZORI VA MEHNAT MUNOSABATLARI**

<b>S.B.G'oyipnazarov</b>	<i>Change of professions and skills in the field of tourism under the influence of artificial intelligence.....</i>	6-19
<b>I.A.Bakiyeva</b>		
<b>S.M.Kurbanbayeva</b>		
<b>S.S.Amirdjanova</b>	<i>Prioryetetnye napravleniya zanyosti naseleniya i organizatsionno-ekonomicheskie mehanizmy ego realizatsii.....</i>	20-33

**INSON KAPITALI**

<b>A.B.Irmatova</b>	<i>Raqamli iqtisodiyotda inson kapitalini rivojlantirishda o'qitish tizimi .....</i>	34-50
<b>A.M.Saidahmadov</b>		
<b>F.O.Odilova</b>	<i>Kasb-xunaqtayt tashkilotlari qurilishi kashfiy kunnikmalari oshiriishga ta'sisir koursatuvchi omillar .....</i>	51-60
<b>T.N.Azimov</b>	<i>Rol' vyschego obrazovaniya v obespechenii ustoychivogo rosta chelovecheskogo kapitala .....</i>	61-78
<b>T.B.Shomurodov</b>	<i>Oziq ovqat xavfsizligini ta'minlashning inson kapitalini rivojlanishiga ta'sirini baholash .....</i>	79-86

**INSON TARAQQIYOTI**

<b>Sh.D.Akishova</b>	<i>O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali moliyaviy salohiyatni oshirishning zamonaviy holati.....</i>	87-93
<b>X.X.Yaxshimuratova</b>	<i>Mamlakat aholisining turmush farovonligini oshirishda iste'mol kreditlarining ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan obyektiv zarurligi.....</i>	94-100
<b>Z.K.Murtozayeva</b>	<i>The role of public procurement in the project financing system formed on the basis of public opinion in the Republic of Uzbekistan.....</i>	101-109
<b>Ch.O'.Ro'zimurodova</b>	<i>Davlat xaridlari tizimini takomillashtirish: zamonaviy tendensiyalar va asosiy o'zgarishlar.....</i>	110-120
<b>T.B.Shomurodov</b>	<i>O'zbekistonda aholi daromadlarining oziq-ovqat xavfsizligiga ta'sirini baholashning metodologiyasini takomillashtirish.....</i>	121-130

**KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH**

<b>O.A.Norboev</b>	<i>Mulkiy munosabatlar mechanizmini takomillashtiriш.....</i>	131-141
--------------------	---	---------

**T.B.Shomurodov**

*Daromad tengsizligining oziq-ovqat xavfsizligiga ta'siri: rivojlanayotgan mamlakatlar misolida.....* 142-150

**MIGRATSIYA****Z.T.Jumanova**

*Turizm sohasi faoliyatini statistik tahlil qilish.....* 151-161

**M.F.Abdumannofova****INSON RESURSLARINI BOSHQARISH**

*Inson resurslarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning tendensiyalari .....* 162-171

**G.R.Kuziyeva**

*Kichik biznes va xususiy tadbirdorlikda ishchi kuchi samaradorligini oshirishda innovatsiyalarning ta'sirini baholash .....* 172-180

**G.R.Kuziyeva**

*Ishlab chiqarishda innovatsiyalarning joriy etilishining ishchi kuchi samaradorligiga ta'sirini baholash .....* 181-188

**S.K.Mansurov****TADBIRLIKNI RIVOJLANTIRISH**

*Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda tovarlar eksportining o'rni va ahamiyati .....* 189-203

**S.U.Ismailova**

*Роль цифровых маркетинговых стратегий в обеспечении устойчивого экономического роста в цифровой экономике .....* 204-213

**Sh.Sh.Ataganova**

*Turistik destinatsiya raqobatbardoshligini oshirish orqali mintaqada turizmni barqaror rivojlantirish .....* 214-221

**D.B.Fayziyeva**

*Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalarining samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish .....* 222-232

**Sh.U.Karimova**

*Mintaqada turizmni rivojlantirishda turistik resurslardan unumli foydalanish .....* 233-238

**G.R.Kuziyeva**

*O'zbekistonda innovatsiyalarning yapli ichki mahsulotni diversifikatsiyalashdagi rolini baholash...* 239-247

**Sh.S.Sayfutdinov**

*Hududiy turizm bozorini barqaror rivojlanishining nazariy asoslari .....* 248-254

**D.T.Alijonova****GENDER TENGLIGI****B.A.Xonturayev**

*Ta'lim institutlarini jamiyatga ta'sirini gender indekslari asosida baholash .....* 255-270

**MUNOSIB MEHNAT**

**S.B.G'oyipnazarov**

*Barriers to the adoption of Industry 4.0 technologies in the practice of occupational safety and health of smes...* 271-281



**МЕХНАТ ИКТИСОДИЙТИ  
ВА ИСОН КАПИТАЛИ**  
**ISSN: 3030-3117**  
<https://laboreconomics.uz/>



**HUDUDIY TURIZM BOZORINI BARQAROR RIVOJLANISHINING NAZARIY  
ASOSLARI**

**Sayfutdinov Shuxratjon Sultonovich**

Alfraganus Universiteti dotsenti

**Alijonova Dilafroz To'xtasin qizi**

Alfraganus universiteti magistri

**DOI: [https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2\\_iss1/a141](https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a141)**

**Annotasiya.** Ushbu maqolada Hududiy turizm va uni xizmatlari bozorida rivojlanishining nazariy asoslari, xamda shakllantirishda e'tibor berilishi kerakli bo'lgan omillari xaqida fikrlar bildirilgan.

Shuningdek Hududiy turizm faoliyatini tadqiq etish jarayonida faoliyatni tashkil etuvchi elementlarni bir butun majmua sifatida o'rghanishga alohida e'tibor qaratiladi. Boshqacha aytganda, Hududiy turizmni rivojlantirish va tashkil etishning asosiy tamoyillari orasida integrasiyalashgan yondashuv tamoyiliga alohida urg'u berilagan.

**Kalit so'zlar:** Hududiy turizm, innovasion yondashuv, turistik xizmatlar, qisqa muddat,majmua.

**ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ РЕГИОНАЛЬНОГО  
ТУРИСТИЧЕСКОГО РЫНКА**

**Сайфутдинов Шухратжон Султонович**

Доцент Университета Альфраганус

**Алижонова Диляфруз Тухтасин кизи**

Магистр Университета Альфраганус

**Аннотация.** В данной статье высказаны мнения о теоретических основах развития регионального туризма и рынка его услуг, а также факторах, на которые необходимо обратить внимание при его формировании.

Также в процессе исследования регионального туризма особое внимание уделяется изучению элементов, составляющих деятельность в целом комплекс. Иными словами, среди основных принципов развития и организации внутреннего туризма был подчеркнут принцип комплексного подхода.

**Ключевые слова:** Региональный туризм, инновационный подход, туристические услуги, краткосрочный, комплексный.

**THEORETICAL BASIS OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THE  
REGIONAL TOURISM MARKET**

**Sayfutdinov Shukhratjon Sultonovich**

Associate Professor Alfraganus University

**Alijonova Dilafruz Tuxtasin kizi**

Master of Alfraganus university

**Abstract.** In this article, opinions are expressed about the theoretical basis of the development of regional tourism and its services market, as well as the factors that need to be paid attention to in its formation.

Also, in the process of researching regional tourism, special attention is paid to studying the elements that make up the activity as a whole complex. In other words, among the main principles of the development and organization of domestic tourism, the principle of an integrated approach was emphasized.

**Keywords:** Territorial tourism, innovative approach, tourist services, short term, complex.

## **Kirish**

Dunyo miqyosida olinganda shu kunning dolzarb muammolaridan, shuningdek davr talabidagi insonlarga xar tomonlama dam olish sharoitlarini shakllantiruchi soxalardan biri bu Hududiy turizm xisoblanadi.

Hududiy turizm faoliyatini tashkillashtirishda yangi texnologik takliflarni ishlab chikish va amaliyotga tatbiq etish, mutaxassislar salohiyati, tegishli infratuzilmani shakllantirish hamda turli xizmatlarni sifatlari yo'lgan qo'yish, mintaqaviy turizmnинг eko-samaradorligining fazoviy farqlanishi va harakatlantiruvchi kuchlari bo'yicha tadqiqotlar, turizmni qonuniy asosda rivojlantirish, uning yalpi Hududiy mahsulotdagi ulushini oshirish va hududlarda aholini yangi ish o'rnlari bilan ta'minlashga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu jihatdan, hududning turizm salohiyatidan kelib chiqqan holda, uni innovation yondashuv xususan soha faoliyatida imkon qadar raqamlashtirigan texnologiyalarini joriy etish asosida takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Xususan, hududiy turizm zamonaviy tarmoq sifatida davlat siyosati darajasiga olib chiqilmoqda. Shundan kelib chiqqan holda, turizm sohasini yurtimizning barcha hududlari qatorida Qashqadaryo viloyatida ham rivojlantirish, uning salohiyatidan to'laqonli foydalanish, infratuzilmalar tizimini rivojlantirish, xizmatlar sifatining doimiy nazoratini yo'lgan qo'yish, texnologik yangilashga yo'naltirilayotgan xorijiy investisiyalarni yanada keng ko'lamda jalb etishga katta ahamiyat qaratilishi zarur bo'ladi.

Mazkur vazifalarning muvaffaqiyatli ijrosi mamlakatimizda Hududiy turizm sohasi faoliyatini boshqarish jarayonida mavjud Hududiy turistik resurs komponentlaridan samarali foydalanish, sohaning hududiy iqtisodiyot rivojlanishiga ta'sir etuvchi samarasini baholash, soha korxonalari faoliyatida raqobatbardoshlik ustunliklaridan foydalanish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni boshqarish, ijtimoiy-iqtisodiy inqirozlar sharoitida sohaning tiklanish strategiyalarini ishlab chiqish bilan bog'liq jarayonlarning takomillashuvini talab etadi.

## **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

Respublikamizda hududiy turizm salohiyatini yuksaltirish va uni amalga oshirishga xizmat qiladigan barcha jihatlarga katta e'tibor qaratilmoqda.

Xususan, hududiy turizm zamonaviy tarmoq sifatida davlat siyosati darajasiga olib chiqilmoqda. Biroq, O'zbekistonda hanuzgacha turizm qadimiy shaharlarimiz, tarixiy madaniy yodgorliklar doirasida cheklanib qolmoqda. Shu bois mavzu doirasida bajarilgan ilmiy tadqiqotlar hamda adabiyotlar tahlilini amalga oshirish zarurati paydo bo'ldi.

Hududiy turizm va uning tarkibidagi Hududiy turizm faoliyatini rivojlantirish hamda soha korxonalarini faoliyatini boshqarish tizimini takomillashtirish borasida xorijiy davlatlarda bir qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Jumladan, xorijiy olimlardan U.Martini, G.Krouch, T.Mixaylik, S.Akis, A.Atiyaman, M.Meskon, M.Albert, E.Shuxart, E.Deming, M.Porter, G.Chesbro, P.Mour, F.Teylor, P.Druker kabi olimlarning ilmiy ishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu olimlarning tadqiqotlarida turizm sohasi, shuningdek uning tarkibidagi Hududiy turizm faoliyati rivojlanishi, faoliyatni boshqarish jarayonlari rivojlanishining nazariy jihatlari hamda undan foydalanish samaradorligini oshirish mexanizmlari muayyan darajada nazariy va uslubiy jihatdan o'rganilgan.

### **Tahlil va natijalar**

Sohada yaratiladigan barcha turdag'i Hududiy turistik xizmatlar boshqa xizmatlar singari moddiy ko'rinishga ega bo'lmasa-da, aholining hayot farovonligi, yashash darajasi va sifatiga muayyan darajada ta'sir ko'rsatadi. Hududiy turistik xizmatlar xizmatlar sohasining boshqa turlaridan farqlanuvchi bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega (1.1-jadval).

### **1.1-jadval**

#### **Hududiy turistik xizmatlarning o'ziga xos xususiyatlari**

T/r	Hududiy turistik xizmatlarning o'ziga xos xususiyatlari	Hududiy turistik xizmatlar xususiyatlarning mohiyati
1.	Hududiy turistik xizmatlarning bir vaqtning o'zida ham ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega ekanligi	Hududiy turistik xizmatlarning ijtimoiy ahamiyati bevosita aholining ish bilan ta'minlashi, daromadlarning oshirishi, hayot sifati va darajasining oshirilishi bilan belgilanadi. Iqtisodiy ahamiyati bevosita uning hudud va mamlakat iqtisodiyotiga (YaHM va YaIM) qo'shayotgan hissasi, xizmatlar sohasidagi o'rni (YaQQdagi ulushi), Hududiy turistik mahsulotlar ishlab chiqarishi va boshqalar bilan belgilanadi.
2.	Hududiy turistik xizmatlarning oldi-sotdi jarayonida moddiy shaklda namoyon bo'lmasligi	Hududiy turistik xizmatlar ham boshqa xizmatlar singari oldi-sotdi jarayonida moddiy shaklda namoyon bo'lmaydi, balki bir vaqtning o'zida iste'mol qilinadi. Xizmat ko'rsatuvchining xizmati uning professionalligiga mos ravishda iste'molchining ham mazkur xizmatdan qanchalik manfaatdor bo'lishligini nazarda tutadi va natijada ularning umumiyligi saviyasiga bog'liq bo'ladi.

3.	Hududiy turistik xizmatlarni saqlash imkoniyatining yo'qligi	Hududiy turistik xizmatlarni ham boshqa xizmatlar singari saqlash imkoniyati yo'q, chunki u bevosita ko'rsatilayotgan jarayonda iste'mol qilinadi, uning sifati ham shu jarayonning o'zida iste'molchi tomonidan baholanadi.
4.	Turizm xizmatlarining xizmat joyida ko'rsatilishi va boshqa joyga olib ketilishining imkoni yo'qligi	Turizm xizmatlari nomoddiy bo'lishi, uni saqlash va tashish imkoniyatining yo'qligi hamda mazkur xizmat iste'mol qilinadigan payt va joyida ko'rsatilishi uni boshqa joyga olib ketilishining imkoni yo'qligi bilan xarakterlanadi.
5.	Hududiy turistik xizmatlarni ko'rsatishda iste'molchi, xizmat ko'rsatuvchi va Hududiy turistik mahsulot bir vaqtning o'zida hozir bo'lishligi	Hududiy turistik xizmatlarning yana bir muhim xususiyati uni ko'rsatish jarayonida iste'molchi, xizmat ko'rsatuvchi va Hududiy turistik mahsulot (xizmat) bir vaqtning o'zida hozir bo'lishi zarurligi bilan xarakterlanadi.
6.	Turizm xizmatlari sifati va raqobatbardoshligi	Hududiy turistik xizmatlarni ko'rsatuvchi korxona va firmalar juda yuqori tavakkalchilik (risk) sharoitida ishlaydi. Agar sifatli xizmatni ta'minlay olmasa, raqobatda imkoniyatni boy berib qo'yishlari ehtimoli juda baland bo'ladi.

Hududiy turizm sohasini barqaror rivojlantirishning yana bir muhim shartlaridan biri, yuqorida aytib o'tilganidek, soha faoliyati bilan bog'liq boshqa bir qancha tarmoqlarni ham baravar rivojlantirishga erishishdan iborat. Chunki sohaning barqaror faoliyati unga tegishli bo'lgan ayrim tarmoqlar faoliyati bilan chambarchars bog'liqdir.

Jahonda hududiy turizm faoliyatini tadqiq etish jarayonida faoliyatni tashkil etuvchi elementlarni bir butun majmua sifatida o'rganishga alohida e'tibor qaratiladi. Boshqacha aytganda, hududiy turizmni rivojlantirish va tashkil etishning asosiy tamoyillari orasida integrasiyalashgan yondashuv tamoyiliga alohida urg'u beriladi.

Integrativ yondashuv hududiy turizmning alohida elementlari muammolarini emas, balki ularning tizimli o'zaro aloqalarini o'rganishga, turizmning barcha elementlari holatini yanada umumiy tizim – hududiy turistik majmuuning quyi tizimlari (subkomplekslari) majmui sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi.

Bugungi kunda jahoning Hududiy turistik salohiyati yuqori bo'lgan mamlakatlarida turizm salohiyatini yagona majmuaga birlashtirgan holda rivojlantirish orqali Hududiy turistik majmualarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa, mamlakatimizning Hududiy turistik salohiyatidan, dastlab, Hududiy turizm majmualari shaklida foydalangan holda, keyinchalik

(hududning Hududiy turistik imiji shakllangandan so'ng) xalqaro darajaga o'tish mumkinligini ko'rsatadi.

### 1.2-jadval


#### **Hududiy turistik majmualarning asosiy yo'nalishlari**

Hududiy turizmning asosiy yo'nalishlari	Hududiy turistik resurslardan foydalanish xarakteriga ko'ra	Hududiy maqomiga ko'ra
Davolanish	Iqlimi shart-sharoitlarga ko'ra davolanish (ko'l yoki daryo bo'yida, tog', tekislik)	Davomiyligiga ko'ra
Sport va sog'lomlashtirish	Yo'nalishli cho'milish, suv sporti, baliq ovlash, ov qilish, tog' chang'i, alpinizm	Hududiy belgilariiga ko'ra
Ong va tafakkurni boyituvchi (bilish yoki tanishuv)	Madaniy va tarixiy obidalar, landshaftlarni kuzatish, "Navro'z" bahor bayramlari, qushlarni asrovchi ishqibozlar musobaqalari va boshqalar	Mavsumga ko'ra
Tijorat	Mahalliy ehtiyojni ta'minlash, chakana va ulgurji savdo hamda hududning turmush tarzi va ehtiyojlari bilan tanishuv	Tashkil qilish xarakteriga ko'ra Muddatlari (rejalashtirilgan), o'z hoxishiga ko'ra: tashkillashtirilgan, tashkillashtirilmagan Bolalar, yoshi kattalar, aralash
Ziyorat	Ziyoratgohlarga safarlar va diniy marosimlar	Yakka tartibda , guruh Markazdan qochuvchi, markazga intiluvchi Stasionar, ko'chma
		Ishtirokchilar soniga ko'ra Ijtimoiy shart-sharoitiga ko'ra Harakat darajasiga ko'ra
		Transport vositalaridan foydalanish xarakteriga ko'ra
		Avtomobilda (yakka tartibda), avtobusda, samolyotda (yo'nalishli, xususiy) temir yo'q

Makro omillar guruhiba mamlakat yoki mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, madaniy-ma'rifiy holatlarni aks ettiruvchi quyidagi omillarni kiritish maqsadga muvofiq:

- tabiiy omillar;
- tarixiy omillar;

- madaniy omillar;
- ekologik omillar;
- ilmiy-texnologik omillar;
- demografik omillar;
- ijtimoiy omillar;
- iqtisodiy omillar;
- siyosiy omillar.



**1-rasm. Makro va mikro omillar ta'sirida turistik xizmatlarni rivojlantirish iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy maqsadlarining shakllanishi**

Mikro omillar guruhi esa faoliyat jarayonida ta'sir ko'rsatish va boshqarish mumkin bo'lgan raqobat, resurslar ta'minoti, kadrlar va boshqa omillardan tashkil topadi.

Hududiy turizm majmualari asosan resurslardan foydalanish xususiyatiga ko'ra bir-biridan farqlanadi. Shu bilan birga ushbu majmualarni alohida xususiyatlarga ko'ra quyidagi jadvaldagি ko'rinishda tasniflash mumkin. Ushbu xususiyatlar Hududiy turizm xizmatlarini rivojlantirilishi va bundan kelib chiqqan holda turistik ob'ektlardan foydalanish yo'nalishini belgilab beradi.

### Xulosa

Bugungi kunda hududiy turizm faoliyati bo'yicha xizmatlarni taklif etuvchi korxonalar tomonidan yuqorida ko'rib chiqilgan xususiyatlardan sof holda alohida tashkillangan shakl mavjud emas. Ko'p hollarda xizmatlarga bo'lgan

talabdan kelib chiqib o’rganilgan holda bir necha xususiyatlarni o’zida birlashtirgan va xizmatlarni diversifikasiyalagan holda iste’molchilarining kengroq diapazoniga xizmat ko’rsatuvchi korxonalar shaklida faoliyat tashkil etilmoqda. Chunki alohida belgi bo'yicha tashkil etilgan faoliyat barqaror, lekin o'zgarmas daromadni ta'minlaydi.

Jahonda hududiy turizm faoliyatini tadqiq etish jarayonida faoliyatni tashkil etuvchi elementlarni bir butun majmua sifatida o’rganishga alohida e’tibor qaratiladi. Boshqacha aytganda, Hududiy turizmni rivojlantirish va tashkil etishning asosiy tamoyillari orasida integrasiyalashgan yondashuv tamoyiliga alohida urg’u beriladi.

Integrativ yondashuv hududiy turizmning alohida elementlari muammolarini emas, balki ularning tizimli o’zaro aloqalarini o’rganishga, turizmning barcha elementlari holatini yanada umumiy tizim – turistik majmuuning quyi tizimlari (subkomplekslari) majmui sifatida ko’rib chiqishga imkon beradi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, turizm xizmatlari bozorida hududiy turizm xizmatlarining rivojlanishi mavjud salohiyatni umumlashtirish asosida soha uchun qisqa muddatlarda yangi hududiy turistik ob’ektlarni shakllantirish va ushbu ob’ektlarni yangi darajaga olib chiqish imkonini kengaytiradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 yanvardagi PF-5611-son “O’zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi farmoni.
2. Абдурахмонов Қ.Х. Менеджмент туризма. Учебное пособие. – Т.: Филиал ФГБОУ ВПО “РЭУ им. Г.В.Плеханова” в г. Ташкенте, 2013. – 248 с.
3. Зорин И.В. Теоретические основы профессионального туристского образования: монография. – М.: Сов.спорт, 2001. – 264 с. ва бошқалар;
4. Кабушкин. Н.И. Менеджмент туризма: Учеб.пособие. – Мн: БГЭУ.1999, - 644с.
5. Mirzaev A.T. O’zbekistonda turistik-rekreasiya faoliyatini boshqarish metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc.) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya. –Т.: TDIU, 2021. – 254-b.
6. Navruz-zoda B.N., Ibragimov N.S., Navruz-zoda Z.B., Navruz-zoda Sh.B.Turistik hudud raqobatbardoshligi. Monografiya. Buxoro: “Sadriddin Salim Buxoriy” Durdona nashriyoti, 2017 - 156 b.

CAPITAL INDEX QUALITY OF EDUCATION EXPECTED DURATION  
EDUCATION EXPECTED DURATION OF EDUCATION LIFE EXPECTANCY  
ION OF EDUCATION LIFE EXPECTANCY HEALTH STATUS HUMAN C  
TAN DEMOGRAPHY ATUS HUMAN CAPITAL HUMAN CAPITAL IN  
HUMAN CAPITAL HUMAN CAPITAL INDEX QUALITY OF EDUC  
CAPITAL INDEX QUALITY OF EDUCATION EXPECTED DURATION  
EDUCATION EXPECTED DURATION OF EDUCATION LIFE EXPECTANC  
ION OF EDUCATION LIFE EXPECTANCY HEALTH STATUS HUMAN C  
TANCY HEALTH STATUS HUMAN CAPITAL HUMAN CAPITAL IND  
DEX 2024  
NANCY  
LABOUR ECONOMICS AND HUMAN CAPITAL  
TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ECONOMICS  
HUMAN CAPITAL

# Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali



+998 71 239 28 13



Tashkent, Uzbekistan



ilmiy maktab@gmail.com



[www.laboreconomics.uz](http://www.laboreconomics.uz)